



YOSHLAR TARBIYASINI SHAKILLANTIRISHDA DIN VA  
MA'NAVIYATNING O'RNI

Abdupattaev Hasanboy Abdurahmonovich

Qo'qon DU Milliy g'oya va huquq kafedrası o'qituvchisi Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD),

Usmonova Maftuna Abdilhay qizi

QDU 2-kurs magistranti Tel: 91-150-73-56 usmonovam260@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlar tarbiyasini shakllantirishda din va ma'naviyatning tutgan o'rni hamda o'zaro mutanosibligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik va ma'naviy merosning yosh avlod dunyoqarashini boyitishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni turli yot g'oyalardan himoya qilishda ma'naviy immunitetni kuchaytirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar tarbiyasi, din, ma'naviyat, milliy qadriyat, ma'naviy immunitet, globallashuv, komil inson.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и взаимосвязь религии и духовности в формировании воспитания молодежи в условиях глобализации. В исследовании освещается значение национальных ценностей, религиозной толерантности и духовного наследия в обогащении мировоззрения подрастающего поколения. Также научно-теоретически обоснованы вопросы укрепления духовного иммунитета в защите молодежи от различных чуждых идей.

**Ключевые слова:** воспитание молодежи, религия, духовность, национальные ценности, духовный иммунитет, глобализация, гармонично развитая личность.

Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda yoshlar tarbiyasi nafaqat pedagogik, balki strategik ahamiyatga ega masalaga aylandi. Inson ma'naviyati uning ichki olami, ruhiy pokligi va irodasini belgilovchi mezondir. Din esa ushbu ma'naviyatning asrlar davomida sinalgan, axloqiy me'yorlar bilan sug'orilgan poydevori hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasini shakllantirishda din va ma'naviyat bir-birini to'ldiruvchi, shaxsni ichki va tashqi tomondan tarbiyalovchi eng muhim poydevorlar hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida bu ikki omil yoshlarni turli ma'naviy tahdidlardan himoya qiluvchi "immunitet" vazifasini o'taydi.

Islom dinida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini qachondan boshlash kerak degan savolga oila qurishdan oldin, ya'ni onasini (yoki otasini) tanlashdan avval deb javob beriladi. Muqaddas dinimizda farzand hali dunyoga kelmay turib, uning kimlar orqali dunyoga kelishi mumkinligiga e'tibor beriladi. Bo'lg'usi ona yoki ota tug'ilajak farzand tarbiyasining zohiriy asoschilaridir. Chunki farzand tug'ilganida uning tabiati sof holda tug'iladi va qaysi muhitda tarbiya ko'rib, o'sib



O'lg'aysa, o'sha muhitdan ta'sirlanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Har bir tug'ilgan go'dak Islom fitratida (ya'ni sof tabiatda) tug'iladi<sup>5</sup>.

Din, xususan, Islom ma'rifati yoshlarni komillikka yetaklovchi bir qator fazilatlarini o'z ichiga oladi. Bular:

- Adolat va Halollik: "O'zingga ravo ko'rganni o'zgaga ham ravo ko'r" tamoyili yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatni uyg'otadi.

- Ilmga Intilish: Islom dinining ilk buyrug'i "O'qi!" ekanligi yoshlarni doimiy izlanishga, dunyoviy va diniy bilimlarni egallashga undaydi.

- Oila Muqaddasligi: Ota-onaga ehtirom va oilaviy an'analarga sadoqat ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazadi.

Islom dinida ota-onaning zimmasiga farzandning ta'lim-tarbiyasini ham yuklaydi. Zero, Islom dini o'zi ta'lim-tarbiya dinidir. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga birinchi xitob qilingan vahiy ilm va ta'limni eslatish bo'ldi. Bolaga ilm berishda avvalo o'qish va yozishni o'rgatish lozim. Chunki o'qish va yozish ilm olishning asosiy qurolidir. Shu bilan birga farzandni iqtidoriga qarab o'zining zamonasidagi ilmlarni ham o'rgatish lozim. Chunki, ilmsiz millatning quvvati pasayadi. Bizlar uchun namuna hisoblangan saodat asri kishilari o'z davrlarining har sohada peshqadami bo'lganlar. Biz ham Islom tarbiyasi o'laroq yoshlarimizni zamonasining oldi yoshlari qilib tarbiyalashimiz zarur. Ularga boshqa tillarni o'rgatishni ham yo'lga qo'yish kerak. Zero, donishmand xalqimizda "Til bilgan el bilar", degan ajoyib naql bor.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari – Forobiy, Buxoriy, Termiziy, Navoiy va jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida din va ma'naviyat bir-biridan ajratilmagan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ta'kidlanganidek, jamiyat a'zolari ma'naviy yuksak bo'lsagina, davlat qudratli bo'ladi deb ta'kidlagan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43 sesiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi. Muqaddas islomdinimiz bizga aynanshuni o'rgatadi", deb ta'kidladilar<sup>6</sup>.

Yoshlarda ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim.

Ta'lim tarbiya barcha davrlarda ham insoniyat oldida hal etilishi zarur bo'lgan eng muhim dolzarb vazifa bo'lib turgan. Shuningdek, u odamlarning amal qilib kelayotgan tajribalari, yutuqlari, urf-odatlar va an'analari asosida tashkil qilingan. Ya'ni, ta'lim-

<sup>5</sup> Zarifov M. va boshqalar. "Islom ma'naviyati asoslari", Toshkent: O'zbekiston musulmonlari idorasi, 2020. B-8

<sup>6</sup> MirziyoyevSh.M.Tinchlik,ma'rifatvabunyodkorlikyo'lidahamkorlik.2016yil18oktabrkuniIslamhamkorlikTashkilotiTashqiishlarvazirlarikengashi43-sesiyasiningochilishmarosimidaso'zlagannutqi//Xalqso'zi,2016yil19oktabr

tarbiyaga doir shakllangan urf-odatlarimiz, boqiy an'analarimiz ko'p. Bugungi kunda ham ulardan yoshlarni tarbiyalashda keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z - o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e'tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo'ladi. Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va kishilarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo'lib, u axloqiy hayotning substansiyasi, ya'ni asosi hisoblanadi.

Tarixan bolaning ta'lim-tarbiyasiga juda nozik va jiddiy masala sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Bu orqali yurtning kelajakdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga zamin yaratilgan. Prezidentimiz Sharq donishmandlarining "Eng kata boyluk bu-aql-zakovat va ilm, eng kata meros bu-yaxshi tarbiya, eng kata qashshoqlik bu-bilimsizlikdir!" degan hikmatli so'zlarini keltirib, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganini, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerakligini, ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'lda nadash ishholatlari kuzatilishini ta'kidlaganida yuzkarra haq edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik. 2016 yil 18 oktabr kuni Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sesiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqi//Xalq so'zi, 2016 yil 19 oktabr
2. Zarifov M. va boshqalar. "Islom ma'naviyati asoslari", Toshkent: O'zbekiston musulmonlari idorasi, 2020. B-8